

**MAKTAB BITIRUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH
ISHLARI: MUAMMO VA ULARNING YECHIMLARI.**

*Rirmatova Mashhura Salimova*

*Qashqadaryo viloyati G'uzor tumani 77-umumiy
o'rta ta'lif maktabi amaliyotchi psixolog*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'smirlarni kasbga yo'naltirishga qo'yiladigan pedagogik va psixofiziologik talablar, kasbga yo'naltirish ishlarining o'ziga xosligi, bugungi kunda har tomonlama qulay bo'lgan kasblarni to'g'ri tanlash xususida fikr yuritilgan. Maqolada o'qituvchilar, o'quvchilar, psixologlar hamda ota-onalarga bir qancha tavsiyalar berib o'tilgan.

Kalit so'zlari: Ishchi kasblar, kasbiy maslahat, olimlarning fikrlari, analiz va sintez jarayonlari, diagnostika.

Darhaqiqat, kelajagimiz egalari deya etirof etib kelinayotgan yoshlarimizni keljakda o'z o'rni va mavqeiga ega bo'lgan, zamon bilan hamnafas bo'la oladigan, mustaqil fikr yurita oladigan, ayniqsa tanlagan kasbi orqali Vatanimiz ravnaqi yo'lida munosib xizmat qila oladigan yetuk mutaxassis bo'lib ulg'ayishlari uchun bugungi kunda Davlatimiz tomonidan keng imkoniyatlar yaratilgan. Kasb tanlashda o'smirlarga yordam berish maqsadida bir qancha mutaxassislar, jumladan: psixologlar, vrachlar, pedagoglar va boshqalarning maslaxati hamda tavsiyalari asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Kasblar bo'yicha maslaxatlar berishning bir qancha xillari mavjud bo'lib, ular bir-biridan tubdan farq qiladi. Jumladan: - Ma'lumot-axborot beruvchi maslaxatlar: Bunda kasbni mazmuni bilan chuqurroq tanishtirishga qaratilgan. U sizni o'sha kasbni shaxsga nisbatan qanday talablar qo'yishi bilan tanishtiradi. Bu kasbni qaerda, qanday qilib o'rganish yo'llarini, ishga joylashish imkoniyatlarini tushuntirib beradi. Odatda bunday maslaxatlarni o'sha kasbda uzoq vaqtidan davomida ishlab kelayotgan mutaxassislar o'tkazadilar Ёшларга ижтимоий-психологик хизмат кўрсатиши маркази 49 - Diagnostik kasb maslaxati berish: Kishini har tomonlama o'rganish asosida undagi qiziqishlar, moyilliklar, qobiliyatlar hamda shaxsdagi kasbiy jixatdan muhim bo'lgan ayrim sifatlarni aniqlab o'rganishga qaratilgandir. Bunday maslaxatdan maqsad faoliyatning qanday soxasida siz qanday ishлаshingiz mumkinligini, ya'ni siz qaysi sohada jamiyat uchun maksimal foyda keltirishingiz mumkinligini hamda o'z mehnatingizdan mumkin qadar ko'proq

qoniqish hosil qilishingizni oldindan belgilab berishdan iborat. Diagnostik kasb maslaxatini psixologlar o‘tkazadilar. Ular shaxsni o‘rganishning anketa hamda testlar bilan sinash singari metodlarini qo‘llaydilar.

- Tibbiy kasb maslahati:

Bunda odamning salomatligi u tanlagan kasb talablariga qay darajada muvofiq kelishini aniqlab olishga yordam beradi.

- Tuzatish kirituvchi kasb maslahati:

O‘smirlarni bir kasbni tanlasa-yu, lekin uning real imkoniyatlari va qobiliyatlariga o‘sha kasb to‘g‘ri kelmagan hollarda, bunday maslaxat zarur bo‘ladi. Ushbu vaziyatda kasbiy rejani qaytadan ko‘rib chiqish yoki unga aniqlik kiritish zarur bo‘ladi.

O‘smirlarning kasbga layoqatliligi uch yo‘l bilan amalga oshiriladi:

1. Sog‘ligi to‘g‘risida;
2. Kasbga taxminiy tayyorgarligining puxtaligi;
3. Psixofiziologik holati.



Bu layoqatliliga qarab mutaxassislar o‘smirlarga u yoki bu kasbga loyiq aniqlashadi va kasbdi o‘zgartirish kerakligi yoki sog‘liqqa zararliliginи, uning organizmi tanlagan kasbiga loyiq emasligi to‘g‘risida ma’lumot berishadi. Buyuk mutafakkir Y.A Klimovning fikricha “Kasb-jamiyat uchun zarur va qadrli soha bo‘lib, bunda insondan jismoniy va ruhiy kuch talab etiladi” bu kuchlar o‘rniga insonning

yashashi va rivojlanishi uchun muhim vositalar omili sifatida namoyon bo‘ladi. Shunday ekan yoshlarni kasblar olamiga asta-sekinlik bilan olib kirish, ulurni shu olamda aniq mo‘jal olishga o‘rgatish zarurdir. O‘qituvchi o‘quvchini darslarda kuzatish, u bilan suhbatlashish, bola faoliyati mahsulini taxlil qilish jarayonida uning ba’zi bir xususiyatlarini, mayllarini payqab olishi, bu xislatlarni rivojlantirish orqali keyinchalik bolani qaysi kasbga qiziqishi yuqori ekanligini belgilab olishi mumkin. Bolani ma’lum bir kasbga yo‘naltirishda maktab jamoasigina emas, balki, ota-onasi ham oliy o‘rinni egallaydi. Shu boisdan maktab jamoasi hamda ota-onasi o‘rtasidagi hamkorlik maqsadli yo‘lga qo‘yilsa, bolaning o‘z tanlagan kasbini egallashi uchun imkoniyat hamda sharoit yaratib berilsa, kelajakda ushbu o‘quvchining kasbiy faoliyatida yuksak natijalarga erishishi, jamiyatimizning rivojlanishiga qo‘yilgan ilk hisoblanadi. Ushbu qadamning kelajakda mustaqil va dadil bo‘lishi yuqorida aytib o‘tilganidek ota-onasi va o‘qituvchilarining ma’suliyatli hamda maqsadli vazifasi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyundagi “Ishchi kasblar bo‘yicha kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5140-sonli qarorida keltirib o‘tilganidek maktabda ta’lim olayotgan o‘quvchilarni o‘zi qiziqqan yo‘nalishlarida qisqa muddatli o‘quv kurslarida ta’lim olishishlari uchun yetarli shart-sharoitlarni yaratish hamda 2022-yil 1-yanvarga qadar ushbu o‘quv markazlari faoliyati to‘liq yo‘lga qo‘yilishini tashkil etish nazarda tutilgan. Shunday ekan yoshlarni kasbga yo‘naltirishda bugungi kunda shu kasbda ishlashi balki kelajakda shu kasbda yashashini ham tushuntirish lozim. Agar bola o‘zi qiziqmagan ma’lum bir kasbni ota-onasi yoki atrof muhit ta’siri ostida tanlasa unda ruhiy siqilish holatlari va kasbiy zo‘riqish illatlari namoyon bo‘ladi. Ishlayotgan kasbi bo‘yicha yangiliklar yarata olmaydi. Chunki unda kasbiy qiziqish hamda motivatsiya ruhi rivojlanmagan bo‘ladi. Shuning uchun bolaning eng avvalo qiziqishi va layoqati birinchi o‘rinda bo‘lishi, fikri va o‘zini qaysi kasbda ko‘ra oladi, shuni atrofdagilar bilib olishi va shu tanlagan kasbi bo‘yicha rivojlantirish ishlarini amalga oshirib borishi lozim.

Bugungi shiddatli zamonda zamon talabiga mos keladigan bir qancha kasb turlari mavjud. Jumladan:

- Loyiha menejerlari: loyiha menejerlari loyihaning asosiy maqsadlari va ko‘lamini aniqlash, rivojlanishning yaxlit rejasini tuzish, ijro bosqichida jamoani boshqarish, loyihaning yakuniy bosqichiga bosh-qosh bo‘ladi. Bugungi kunda har bir kompaniyalar malakali va tajribali loyiha menejerlariga ega bo‘lishni albatta xohlaydi.

- Bugalter: daromad va xarajatlarni kuzatishda, ularning qonun hujjalariiga muvofiqligini ta’minlashda, investorlarga, menejment va hukumat vakillarigabiznes qarorlarini qabul qilishda zarur bo‘lganmiqdoriy moliyaviy ma’lumotlarni taqdim etishga yordam beruvchi soha hisoblanadi.

- Dasturiy ta'minot ishlab chiqaruvchisi:bilamizki, ushbu kasb IT (Axborot texnologiyalari) sohasidagi juda mashhurva yaxshi haq to'lanadigan kasb hisoblanadi.

- WEБ- dizayner: WEБ- dizaynerlik kasbi "Man-Art Image" turiga tegishli, chunki u makon va badiiy tasvirlarni yaratish, dizayni, modellashtirish bilan bog'liq.

- Marketing bo'yicha mutaxasis kabilalar: marketing tadqiqotlari –bu kelajakda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaydigan sohalardan biri sanaladi. Sababi kompaniyalar doimiy tarzda yanada ko'proq rivojlanish va kattaroq natijalarga erishishga intilishadi.

O'quvchilarni kasblarga bo'lgan qiziqishlarini oshirish va rivojlantirish maqsadida kasblar haqida to'liq ma'lumotlar va maslaxatlar berib borish maqsadga muvofiq bular edi. Jumladan kasbiy maslaxat 3 bosqichga bo'linadi:

1. bosqich Kasbga taylorlash. Bunda o'smirlarning qiziqishi, u yoki bu kasbga moyilligini hisobga olgan holda kasblarga tayyorlanadi,kasblar to'g'risida axborot berib boriladi.

2. yakunlovchi bosqich. Bu turda o'quvchilarni qobiliyatiga qarab u yoki bu kasblarni egallashiga yordam berish.

3. Kasbga ko'nikma hosil qilish. Bu kasbga yo'llash ishi yakunlovchi ish bo'lishi kerak,chunki o'quvchi zavod va fabrikada , shuningdek o'quv yurtlarida o'z qiziqqan sohasi bo'yicha ishlaydi va o'qiydi.

Demak, o'smirlarni kasbga qiziqtirishga qo'yiladigan pedagogik psixofiziologik talablar umumiyl holda quyidagi xulosalarni chiqarishimizga olib keladi:

- O'smirlarni kasb-hunarga yo'naltirishning nazariy va amaliy asoslarini yaratish.

- O'smirlarni kasbiy qiziqishi tanlagan kasb bilan o'zaro aloqasi borligini aniqlash.

- O'smirlarni kasb-hunarga yo'naltirishga oid ommaviy axborot vositalarida ko'rsatuvlar uyishitirish.

- O'smirlarni mehnat faxriylari bilan uchrashuvlar o'tkazish.

- Ishlab chiqarish korxonalariga zamonaviy texnologiyalar bilan tanishtirish.

- O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishning tavsiyalar va uslubiy ko'rsatmalarini ishlab chiqishdan iborat.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Milliy kadrlar" dasturi.
2. G'oziev E,Mamedov K. Kasb psixologiyasi. T- O'ZMU 2003. 156-b
3. Maxmudova.D. "O'quvchilarni kasbga yo'naltirishga oid pedagogika faoliyat elementlar orasidagi uzviylik va uzlucksizlikni ta'minlash" Xalq ta'limi jurnali. 57-58 bet.
4. Internet ma'lumotlari.